

O'ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI

Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna

TDPU Boshlang'ich ta'limda ona tili va uni o'qitish metodikasi kafedrasini dotsenti v.b

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7423965>

Annotatsiya. Hozirgi kunda, o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, har bir insonni o'z tilini yaxshi bilishi uchun turli xildagi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarni yanada samarli amalga oshirish uchun esa Dialektal korpus kerak bo'ladi. Ushbu maqola, o'zbek tili dialektal korpusini yaratishning lingivistik asoslarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, dialect, korpus, lingvistika.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ДИАЛЕКТНОГО КОРПУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Сегодня внимание к узбекскому языку возрастает день ото дня. В частности, проводятся различные мероприятия, чтобы каждый хорошо знал свой родной язык. Для более эффективного решения этих задач необходим диалектный корпус. Данная статья проливает свет на лингвистические основы создания диалектного корпуса узбекского языка.

Ключевые слова: узбекский язык, диалект, корпус, языкознание.

LINGUISTIC BASIS OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE

Abstract. Today, attention to the Uzbek language is increasing day by day. In particular, various activities are being carried out so that everyone knows their own language well. Dialectal corpus is needed to carry out these tasks more efficiently. This article sheds light on the linguistic foundations of creating a dialectal corpus of the Uzbek language.

Keywords: the Uzbek language, dialect, corpus, linguistics.

Kirish

Ma'lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u me'yorlashgan yoki me'yorlashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta'rifni berish mumkin: **Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir.**

Har bir adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'ladi. To'g'ri, o'zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma'lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya'ni o'zbek adabiy till muayyan sheva va shevalardan leksik, fonetik, grammatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o'sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo'lib, u doimo rivojlanishda, o'zgarishda bo'ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog'liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o'zining tayanch dialektiga ega bo'lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda "o'lik til" degan termin bilan yuritiladi.

"O'zbek dialektologiyasi" ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo'lib, o'zbek shevalarini o'rganadigan fanidir. Dialektologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish

chegaralarini o'rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliyma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I. A. Karimovning: **“Jamiki ezgu failatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi Ona Mi - bu millatning ruhidir!”**, - degan so'zlarini eslash o'rinlidir. Derna, shevalar to'g'risidagi fanni o'rganish talabalami milliy g'oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi. To'g'ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o'zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o'z shevasini unutishi kerak degan so'z emas.

Asosiy qism

O'zbek shevalari **tasviriy (tavsifiy), qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik geografiya** metodlarida o'rganib kelinmoqda. Shuningdek, shevalar lingvistik geografiya metodi bilan ham o'rganiladi (bu haqda “Areal tilshunoslik (Lingvistik geografiya)” mavzusida fikr yuritiladi),

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) tushunchasi va uning mohiyati. Bu terminlarning birinchisi lotincha area — maydon, kenglik, hudud hamda **lingvistika** - tilshunoslik, ikkinchisi esa lingvistika va geografiya tarkibiy qismlaridan iborat.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilar va raqamlar vositasida karta(xarita)da, aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyaning bir bo'limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo'lgan xususiyatlarning tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir. Lingvistik geografiya shevalami o'rganishning bir metodi hamdir. Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariga ham e'tibor qaratiladi. Bu ikki hodisaning obekti bir bo'lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalami monografiya, maqola va lug'atlar yaratish orqali o'rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ulami tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug'ullanadi. Shuning uchun ham lingvistik geografiyani dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiy turlari amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalargda amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini - izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bebosita o'zini ham yozish mumkin. Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning tori lingvistik atlas deyiladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tiining tarqalish chegarasini ko'rsatgan rangli kartalar yig'indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasning klassik namunalari bop. Bular quyidagilar:

- **Venker G.** Shimoliy va markaziy Germaniyaning dialektologik atlas.
- **1881 (6karta). Vrede F.** Nemis lingvistik atlas.
- **1926-1932 (6 jild). Jilyeron J., Edmon E.** Fransiya lingvistik atlas.
- **1896-1908. Yaberga K., Yuda I.** Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlas.

Metadologiya

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) shunday sohaki, u har bir sheva va dialekt haqida, uning madaniy, tarixiy xususiyatlarini, o'ziga xosligi bilan yaxlit ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug'ullanadigan xodimlar, mutaxassislarini keng tanishtirish imkonini beradi. Lingvistik geografiyada, awalo, o'rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi

geografiyasini aks ettirishga mo'ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlari belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko'rsatuvchi chiziqdami tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo'yash texnikasi belgilab olinadi.

O'rganilayotgan til yoki shevalarining aloqada bo'lgan (qo'shni) til va shevalar bilan interferensiyasi natijalarini talqin qilish. Avvalgi sahifalarda ta'kidlanganidek, o'zbek tili qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda shevalari bilan kesishgan. Shevalar kesishgan joyda har ikkala til shevalariga o'xshamagan shevalar paydo bo'ladi. So'zsiz, bu shevalardagi o'zbek tiliga xos bo'lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo boladi. Ijtimoiy omillarni hisobga olish. Interferentsiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bunda ikki sheva yoki tilning interferentsiya sharoitida qo'shilib ketishi chog'ndagi til qarshiligi bo'lishi hisobga olinadi. Muayyan hududda turg'unlanmagan til hodisalarini sharhlash. Ikki sheva yoki dialektga xos xususiyatlarning shu sheva va dialektlarda qo'lanishi hamda ulardan birining g'olib kelmasligi interferentsiyaning tugallanmaganligini, ya'ni bir sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Innovatsion markazni aniqlash. Bu tamoyil, albatta, til tarixi bilan bog'langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo'lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi.

Dialektal so'zlam badiiy adabiyotda qo'llashda yozuvchilar turli usullardan foydalanadilar. Ayrim mualliflar shevaga oid so'zni izohsiz ishlatib ketsalar, ayrimlari sahifa tegida uning ma'nosini keltirib boradilar (masalan, "Xorazm" romanida). Dialektal so'zning ma'nosini izohlashda yana quyidagicha usullardan foydalanilgan: - dialogik nutqdagi dialektal so'z muallif gapida reallashtiriladi: - Buvijon, - dedi u onasining mayus yuziga termilib. - Shirmon xoladan qarz olib tursangiz bo'lmasmikan (Farg'ona tong otguncha).

O'zbek korpus lingvistikasida shevalar korpusini belgilash bir qadar murakkab jarayonlardan biridir. O'zbek tili agglutinativ tillar guruhiga kirishi bilan dialektal korpusning tuzilish orqali korpus tuzilish kerak deb hisoblasak, boy milliy madaniyatga ega yashash tarzi, tarix va an'anaga egaligi bilan mavzuviy metarazmetkalanmagan shevalar korpusi tuzilish birinchi planga chiqishi tabiiy. Bunda, albatta, dunyoda hozirda foydalanilayotgan dialektal korpuslarga yondashgan holda ish olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Rus tili milliy korpusining dialektal matnlar korpusi [[http:// www.ruscorpora.ru/new/](http://www.ruscorpora.ru/new/)] murojaat qilamiz, u hozirga qadar erkin foydalanish mo'ljallangan korpuslar sirasiga kiradi. Ushbu korpus ustida tadqiqotlarni ikki bosqichga bo'lib amalga oshirilgan. Ya'ni birinchi bosqich 2006 yilda boshlangan va unda grammatik metarazmetkali orfografik meyorlarga boysundirilgan sheva matnlar korinishida berilgan, ammo bu kabi matnlardan har doim ham tolaqonli ma'lumot bazasi mavjud bo'lmagan.

Dialektologiya, birinchidan, adabiy tilni boyitish, til tarixini va xalq madaniyatini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, u sotsiolingvistika bilan uzviy bog'liq: jamiyatda adabiy til va sheva munosabatlarini o'rganishga, ular atrofida yuzaga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

Lingvistikaning yangi yo'nalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu yo'nalishning o'zining shunday kategorial apparati mavjudki, uning markaziy obekti konsept tushunchasi bo'lib hisoblanadi. Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada (lingvomadaniyat) konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta

e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan". Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, uy konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi: a) yashash joyi – bino – ko'p qavatli uy – hovli – xonadon – oila; b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski; v) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Xulosa

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, til bu insoniyatni bir-biri bilan muloqot qilishi, millatni borligini isbotlovchi vosita ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tilning bir bo'lagi bo'lgan dialektal korpusni yaratish esa ancha muhim ish ekanligini anglashimiz kerak.

REFERENCES

1. https://www.researchgate.net/profile/Tulqin-Togayev/2/publication/356639881_O'ZBEK_TILI_TARAQQIYOTI_VA_XALQARO_HAMKORLIK_MASALALARI/links/61a61ac985c5ea51abbd2b6b/OZBEK-TILI-TARAQQIYOTI-VA-XALQARO-HAMKORLIK-MASALALARI.pdf
2. <file:///C:/Users/borajabboyev/Downloads/xolova-m.-dialektal-korpusning-fonetik-metarazmetkasi-haqida-ayrim-qaydlash.pdf>
3. <https://elibrary.namdu.uz/81%20%D0%A2%D0%B8%D0%BB%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA/O'zbek%20dialektikasi.%20Ashirboev%20S.pdf>
4. <https://hozir.org/zbek-tilining-dialektal-blinishstrepla.html>